

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA DIQQATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM VAZIFALARI HAMDA PSIXOLOGIK USULLARI

**Baratova Navro'za Jomurod qizi**

*Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani 23-maktab amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** Diqqatning barqarorlik, ko'chuvchanlik, bo'linuvchilik kabi xususiyatlari, ko'lami kabi omillari uning doirasini kengaytiradi.O`quvchilar diqqatini jalg qila olish o`qituvchi mahorati bilan o'lchanadi.

**Kalit so`zlar:** dars, "gugurt qutichasi", barqarorlik, hissiy, idrok, fikr, o`qituvchi, o`quvchi ta`lim .

### **KIRISH**

Dars - ta'limni tashkil etishning muhim shakli. Unda sinf-dars tizimining barcha imkoniyatlari namoyon bo'ladi, unda o`quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o`quv ishlarining muntazamligi ta'minlanadi. O`quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini anglashi o`qituvchi uchun har bir o`quvchi faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.Dars bevosita o`qituvchi boshchiligidagi aniq belgilangan vaqt mobaynida muayyan o`quvchilar guruhi bilan tashkil etiladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli hisoblanadi. Darsda har bir o`quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o`quvchilarning dars jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatları va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish,dars mavzusiga diqqat-e'tiborini jalg qila olish uchun qulay sharoitlarni yaratiladi.

O`quvchilar uchun mavzu kengligini oshirish,yodda chuqur eslab qolish psixologik jihatdan diqqat bilan bog`lanadi.Belgilangan vaqt davomida o`quvchi butun diqqatini mavzuga dars jarayoniga qaratishi ,birinchi o'rinda, o`qituvchi mahoratiga bog`liq hisoblanadi.Psixologik jihatdan diqqat tushunchasi juda keng qamrovli tushuncha bo`lib, o`quvchilar bilimi kengayishi uchun muhim tushunchasidir.Diqqatning barqarorligi uning yagona, umumiy (masalan, kitob o'qish, masala yechish kabi) ishga xizmat qiluvchi narsa

yoki hodisaga uzoq muddat jalb bo‘la olishidan iborat. Ko‘chuvchan diqqat bir faoliyatdan yoki narsadan boshqa faoliyat yoki narsaga tez jalb bo‘ladi. Bu xususiyat diqqatning avvalgi narsaga qay darajada qaratilganligiga va yangi faoliyatning xususiyatiga bog‘liq. O‘quvchilar dars mavzusi yuzasidan butun e`tiborlarini mavzuga qaratishi uchun bugun fan tizimlarida interfaol metodlar shakllanmoqda. Bu metodlar dars va bilim nazariyasining amaliy jihatlarini rivojlantiradi. Jalb qila oladigan metodlar sirasiga bir qancha metodlarni kiritishimiz mumkin.

“Qarorlar shajarasi” metodi. “Qarorlar shajarasi” metodi muayyan fan asoslari haqidagi bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirib, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Bu metod yuzasidan diqqat ko‘lami uning eng qisqa vaqt ichida (go‘yo birdaniga) o‘z doirasiga sig‘dira olishi mumkin bo‘lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Kuzatishlar mobaynida o‘quvchilarning dars davomidagi aqliy faolligini ta’minlash va diqqatini mavzu materiallariga qay tarzda jalb qilish tadqiq qilindi. Olib borilgan kuzatishlar va tadqiqotlar oqibatida o‘quvchilar diqqatini o‘qish materiallariga qaratishning quyidagi usullari aniqlandi:

- 1.Darsni o‘quvchi qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish.
- 2.Darsni qiziqarli o‘yinlar bilan bog`lash.
- 3.Rang-baranglikka intilish.
- 4.Rag`batlantirish.

Bu kabi usullar dars jarayonini ,o‘quvchilar diqqatini murakkabroq qaratishga yordam beradi. Bilamizki,o‘quvchi o‘zi uchun qiziq bo‘lmagan ma’lumotlarga diqqat qaratmaydi. O‘qituvchi mavzuni yuksak mahorat bilan, ustalik bilan o‘quvchilarga

tushuntirsa, o`quvchining butun diqqatini jalb qila oladi. Bu ayni haqiqat. Shu sababli o`qituvchi o`quvchilar qiziqishlaridan xabardor bo`lishi lozim. Bu bilan o`quvchining diqqatini jalb qilgan holda mavzu materiallari o`rgatiladi.

Dars davomida darsni qiziqarli o`yinlar bilan bog`lash ham diqqat imkoniyatini yuksaltiradi. “Ixtiyoriy diqqat, ayniqsa, o`qitishda katta ahamiyatga ega, dars o`zlashtirish ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Chunki o`qish nafaqat jiddiy mehnat, balki ko`p mashaqqatli ishdir. Shuning uchun u irodaga suyanadi. Ammo o`qishni faqat ixtiyoriy diqqat asosidagina o`tkazish o`quvchilarni tez charchatib qo`yadi. Shu sababli o`qishga qiziqtirish, darsni qiziqarli qilib o`tish kerak”. Mohir pedagogga qo`yilgan talablardan biri bu - dars ma`lumotlarini qiziqarli o`yinlar bilan uyg`unlashtirish. Shuning uchun o`qituvchi bisotida qiziqarli o`yinlar va metodlar ko`p bo`lishi zarur. Masalan, oddiygina bor bilan ham qiziqarli o`yin o`tkazish mumkin. O`quvchilardan oddiy tarzda o`tilgan mavzular bo`yicha ma`lumotlarni so`rash ancha zerikarli. Buni qiziqarli tarzda o`tkazish mumkin. **Izlanish metodi.** Bu metod asardagi voqeа va tafsilotlar asosida o`quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo'llaniladigan usuldir. O`qish darslarida reproduktiv metod keng qo'llaniladi. Masalan, o`qituvchi dastlabki darslarda o`zi asar matnini qismlarga bo`ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo`lgan muhim fikriga o`quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko`rsatadi, o`quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma`noni olib, o`quvchilarga ko`maklashadi. Shundan so`ng o`quvchilar o`qituvchining ko`rsatmalari yordamida yuqorida ko`rsatib o`tilgan vazifalarni o`zlari mustaqil ravishda bajaratdilar.

Yuqorida ta`kidlangan metodlardan tashqari, o`quvchilar diqqatini kengroq jalb qilish uchun zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan “Aqliy hujum”, “Tarmoqlash”, “Guruhlar bilan ishlash”, “Blis texnologiyasi” kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qollash o`qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak. Yozuv taxtasiga katta qilib aylana chizamiz va buni qora oyna deb tasavvur qilamiz. Bu oynaning narigi tomonida barcha bilimlar jamlangan. Oynani

sindirish va bilimlarni chiqarib olish zarur va buni bajarish uchun o`quvchilardan yordam so`raladi. Har bir o`quvchi bitta ma`lumot aytadi va oynaga “X” belgisini chizadi. Aylana “X”larga to`lgandan keyin oyna parchalanadi va bilimlar chiqarib olinadi. Bu jarayonda nafaqat o`quvchining diqqati darsga jamlanadi, balki bilimlari mustahkamlanadi. Yana diqqat jalg qilish imkoniga ega metodlardan bir qanchasini aytishimiz mumkin.

1. Dars jarayonida rangli materiallardan foydalanish.
2. Darsda bir xillikdan uzoqlashib, turfa xil metodlardan foydalanish, darsni turli xil usullarda o`quvchilarga tushuntirish.

Ranglar inson miyasiga juda katta ta`sir qiladi. Agar o`qituvchi mavzu ma`lumotlarini rangli qog`ozlarga yozib, o`quvchilarga tushuntirsa, ranglar o`quvchi diqqatini o`ziga jalg qiladi. O`quvchilar avval rangga e`tibor bergen holda, keyin qog`ozdagi ma`lumotlarga e`tiborini qaratadi, o`quvchilar o`rtasida o`tkazilgan tadqiqotlar natijalarida shunisi aniq bo`ldiki, ushbu rangli qog`ozlarga yozilgan ma`lumotlar oq qog`ozga yozilgan ma`lumotlardan ko`ra ko`proq o`quvchi diqqatini jalg qiladi hamda xotirasida tez va oson saqlanib qoladi.

Rag`batlantirish metodi orqali o`qituvchi dars davomida juda katta muvaffaqiyatlarga erishadi . O`quvchilarning diqqatini mashq qildirishga doir mashqlar:

1.Gugurt qutichasi biografiyasini esga tushirish.

2. 5 sekundlik qisqa e`tibor bilan stol ustida yotgan barcha buyumlarni ichki nazar bilan “suratga” olishni buyurish.

3.Buyumlarni “suratga oling”. Ko`zni yumishga komanda beriladi. Pedagog buyumlarni aralashtirib yuboradi va sinaluvchidan buyumlar oldin qanday yotgan bo`lsa, ularni shunday qo`yib chiqishini so`raydi.

O`qituvchi o`quvchilardan birini tanlab oladi va stol ustidagi o`zgarishlar haqida so`raydi. O`quvchi og`zaki aytganidan so`ng boshqa o`quvchilar uning xatosini to`g`irlashadi. O`qituvchi stol ustidagi buyumlarni o`z o`rniga qo`yishini o`quvchidan so`raydi, agar, o`quvchi bu safar ham xatoga yo`l qo`ysa, u buyumlarga e`tibor

bermaganligi aniq bo'ladi, yana shunday jarayonda o'quvchi bu xatoni takrorlamasligi uchun pedagog unga qo'shimcha vazifa berishi yoki "jarima"ga tortishi kerak. Vaziyat bo'yicha o'quvchini jazolash yoki rag'batlantirish: diqqatni tortishga, yanada e'tiborli bo'lishga, bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishga va ta'lim sifatining oshishiga yordam beradi. Faqatgina diqqat bilan emas, balkim, xotira bilan ham ishlashimiz kerak. Diqqatning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishdagi alohida rolini, ayniqsa K.S.Stanislavskiy aniqlab bergen. "Diqqat sovuq, mulohazakor diqqat emas, balki hissiy, faol diqqat-barqaror diqqat holatini uyg'otishga yordam beradi". Diqqat ko'p tomonlama bo'lmos'i kerak. Ijodiy pedagogik diqqatning quyidagi xususiyatlari mavjud: ko'p obyektivlik, jo'shqinlik, amaliy barqarorlik; U aqlli,hissiy va irodaviy xususiyatlarga ham egadir.

Katta yoshdagi kishida diqqatning hajmi 4-6 obyektga yetadi. Shuning uchun obyektlar soni ko'paygan sharoitda mashq qilmagan kishining nazorati yo'qolishi mumkin, sarosimaga tushish holati boshlanadi. Tabiiyki, bolalarda ham nazoratni yo'qotib qo'yish holatlari uchraydi. Yosh bolalarda diqqatning hajmi 3-4 yoki 5 obyektga yetadi. Bolalarning diqqati hajmining ortib borishi ularni parishonxotirlikka, jizzakilik, sabiyashish kabi holatga, darslarni bo'sh o'zlashtirishga yoki umuman darsga e'tibor bermaslikka olib keladi.

**Xulosa** qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarning diqqatini torta olmagan o'qituvchi darsning sifatini maksimal darajaga yetqaza olmaydi. Diqqat nafaqat psixik jarayon, balkim, o'qish sifatini oshiradigan, talim olish va tarbiyalanish jarayonining mustahkamligini ta'minlab beradigan muhim omillardan biridir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev.Sh.M: ta'lim-tarbiyaga jarayoniga invistitsiya kiritishga oid g'oyaviy so'zlaridan.2020
2. Xaydarov.I.F, Xalilova.I.N: Umumiy psixologiya darsligidan.2009
3. Toxirova.G:"Yosh va pedagogik psixologiya"2016
4. Abdullayeva Q. va boshqalar "O'qish ktobim" 2- sinf,T. 2006 yil
5. Abdullayeva Q., va boshqalar "Savod o'rgatish darslari" T,

6. Azizzo'jayeva N.N. Pedagogik texnolofiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
7. Abdullayeva Q., va boshqalar "Ona tili" T., "O'qituvchi "1999 yil.
8. Bo'ri Ziyamuhammedov, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.
9. «Kitobim-oftobim» Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti, 2008 yil.